

## EVFEMIZMLARNING BADIY AHAMIYATI VA SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI

**Yuldosheva Mashhura Zokirjon qizi**

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Maqolada muloqot tamoyillaridan biri bo'lgan xushmuomalalikni yuzaga chiqishida evfemizmlarning tutgan o'rni va ahamiyati, ularning nutqda qo'llanishi ijtimoiy omillarga bog'liq ekanligi sotsiopragmatik jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** xushmuomalalik nazariyasi, sotsiopragmatika, tabu, evfemizm, evfemizmning shakldoshligi, ijobiy xushmuomalalik.

**Аннотация:** В статье социопрагматически анализируются роль и значение эвфемизмов в возникновении вежливости, которая является одним из принципов общения, а также тот факт, что их употребление в речи зависит от социальных факторов.

**Ключевые слова:** теория вежливости, социопрагматика, табу, эвфемизм, формальность эвфемизма, положительная вежливость.

**Annotation:** In the article, the role and importance of euphemisms in the emergence of politeness, which is one of the principles of communication, and the fact that their use in speech depends on social factors are sociopragmatically analyzed.

**Key words:** theory of politeness, sociopragmatics, taboo, euphemism, formality of euphemism, positive politeness

Milliy ma'naviyat muammosi globallashtirilgan bugungi kunda milliy mentalitetni ifodalaydigan evfemik va disfemik vositalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Evfemizmning paydo bo'lishi insoniyat tafakkuri va axloqiy qadriyatlar rivoji bilan bog'liq. U nafaqat til hodisasi (ifoda etayotgan shaxs nuqtayi nazaridan noqulay bo'lgan birliklar o'rnida qo'llangan so'z, so'z birikmasi yoki gap), balki insonning nutqiy vaziyatni qaysidir ma'noda o'zgartirishga moyilligi sifatida ham namoyon bo'ladi. Maqbul so'z qo'llana turib, so'zlovchi tomonidan man etilgan (tabu) birliklar qo'llanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosoz muhit yumshatiladi. Man etilgan so'zlar esa insoniyat bilan tengqur deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi.<sup>1</sup> Madaniy muhit evfemizmlarning tilda qanday namoyon bo'lishini shakllantirishda kuchli vositadir.

---

<sup>1</sup> Xurshida Qodirova. O'zbek tilida evfemizm va disfemizm. – Toshkent: "Bookmany print", 2022. 5-bet

O‘zbek tilshunosligida N.Ismatullayevning “Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar”, A.Omonturdiyev “Professional nutq evfemikasi” nomli doktorlik dissertatsiyalarida evfemizmlar ancha va qamrovli yoritilgan.

Evfemizm yunoncha – “yaxshi gapiraman” degan ma’noni anglatib, narsa-hodisaning ancha yumshoq shaklidagi iodasi; qo‘pol, deadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol bo‘lmaydigan so‘z (ibora)ni qo‘llashdir. Masalan: ikkiqat, bog‘oz so‘zi o‘rnida homilador, og‘ir oyoqli so‘zlarni qo‘llanuvchi<sup>1</sup> nutqiy hodisadir. Ular asosan noxush iboralar va ma’nolarni yumshatish, zararsizlantirish xushmuomalalik tarzda ifodalash, so‘zlovchi yoki tinglovchini hijolatdan qutqarish uchun ularni muqobil, neytralroq so‘zlar yoki iboralar bilan almashtirish uchun yengillashtiruvchi strategiya sifatida qo‘llanadi. Faktlar shuni ko‘rsatadiki, evfemistik vositalar har qanday tushuncha ifodalashidan (diniymi, dunyoviymi, salbiymi, ijobiymi) qat’i nazar, ma’lum ehtiyoj, zaruriyat – xalqlarning estetik qarashlari, axloq-odob normalari zaminida paydo bo‘lgan.<sup>2</sup>

Badiiy matnning ijtimoiy xoslanishida evfemizm va disfamezmlarning o‘ziga xos o‘rni bor. Bu birliklar muloqotda kommunikatorlarning yoshi, jinsi, maqomi va kasbi kabi sotsiopragmatik omillarga nisbatan turlicha qo‘llanadi. Natijada, nutqda evfemizmlardan foydalanish so‘zlovchining ma’lum maqsadini ifoda etishga xizmat qiladi. Nutq vaziyati, o‘rni va boshqa bir qator omillar evfemizmlardan foydalanishga ehtiyoj tug‘diradi.<sup>3</sup>

Xushmuomalalik xalqaro tushunchadir. Har bir til va madaniyatda hurmat ko‘rsatish, taqiqlovchi iboralardan qochish, yuzni saqlash va yoqimsiz so‘zlarning salbiy ta’sirini kamaytirishning o‘ziga xos usuli bo‘ib, xushmuomalalik nazariyasi va dolzarblik nazariyasi evfemizmlarga pragmatik yondashuv bilan bog‘liq. Boshqacha qilib aytganda, xushmuomalalik bilvosita nutqiy harakatlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Evfemizmlar xushmuomalalikni ifodalash va tinglovchining yaxshi taassurotini saqlash uchun ishlatiladi. Shunga o‘xshab, odamlar o‘rinli va o‘rinli iboralarni qo‘llash orqali tinglovchining yuzini saqlab qolishlari mumkin, bu esa xushmuomalalik belgisidir. Demak, xushmuomalalik nazariyasi kiruvchi stimullardan eng kerakli ma’lumotlarni qidiradi. Bu tegishlilik nazariyasi deyiladi. Evfemizmlar, tegishlilik nazariyasi va xushmuomalalik nazariyasi bir-biriga bog‘liqdir. Masalan, tinglovchilar va tinglovchilar ayollar muammolarini muhokama qilish uchun tegishli evfemistik atamalarni ishlatganda kamroq qo‘rquv, uyat va jirkanish his qiladilar. Boshqacha aytganda, odamlar

<sup>1</sup> A. Hojiyev, Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) 131-bet.

<sup>2</sup> J. Omonturdiyev, A. Omonturdiyev. So‘z qo‘llash san’at. – [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) 22-bet

<sup>3</sup> G. Safarova, Evfemizmlarning nutqiy voqelanishida pragmatik omillarning ta’siri. “o‘zbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktikasi masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari . Toshkent – 2021. 55-bet

qanchalik to‘g‘ri va o‘rinli evfemik iboralarni ishlatsa, ular shunchalik xushmuomala bo‘lib ko‘rinadi va tinglovchilarning yuzlarini saqlaydi.

... Siz ham kuyovingiz bilan maslahatlashing. Xo‘p, desangizlar, tilxat berasizlar.

- Tilxat?! Sharif cho‘chib tushdi. – Shunchalik... og‘irmi?<sup>1</sup>

... Dotsent Bekmirzayev shu yerda ishchilar bilan chaqchaqlashib o‘tirib birdan yuragini ushladi-yu, tili ham so‘zga kelmay joni uzildi. Ushbu nutqda qo‘llangan og‘ir evfemizmi sog‘ligida katta muammo bo‘lgan, umrining oxiri qanday bo‘lishini bilmay qolingan vaziyatni “parda” lab ko‘rsatish uchun hamda bemorning yaqini bo‘lgan kishining his-tuyg‘ulari, achinish, hamdardlik kabi ruhiy holatlarini ham ifodalashga xizmat qilgan. Evfemizming so‘roq shaklida ifodalanganligi ostida esa “boshqa yo‘li bordir, tuzalib ketar” ma’nosidagi implikasiya yashiringan. Joni uzildi birikmasi esa o‘lmoq so‘zini yumshatish uchun qo‘llangan. Demak, sotsiopragsmatik jihatdan bu ikki evfemistik vosita xushmuomlalikni shakllantirgan bo‘lib, katta yoshdagi insonlar nutqiga xosdir.

O‘zbek jamiyatida, madaniyatida homilador ayolga katta e’tibor berilgani tufayli ijobiy xushmuomalalik (positive politeness)da homiladorlikka oid so‘zlarni ochiq aytishdan qochiladi va homiladorlik ko‘pchilikning ongida kasallik, o‘lim bilan bog‘liq, qiyin jarayonning biri deb hisoblanganligi bois jamiyatda ko‘pchilik homiladorlik hamda shu bilan bog‘liq atamalarga boshqa evfemistik so‘zlarni almashtiradilar. Ular o‘rniga quyidagi evfemizmlarni qo‘yadi:

Do‘xtir, “Keyingi bolangizning sog‘lom bo‘lishini istasangiz, tug‘ishdan saqlanib turing”, degani uchun ayasi unga ukacha olib kelmaydi. Zokir uch yoshga to‘lgandan keyin dadasi bilan ayasi Xudodan qiz so‘rashdi...<sup>2</sup>

- Bechora opog‘oyimga achinaman. Xizmatkordan farqlari yo‘q edi. Sochlari supurgi, qo‘llari kosov bo‘lib xizmatlarini qilsalar ham kelinposhshaga yoqmadilarda! To ko‘zi yoriguncha akangiz kelinayangizning qo‘lini sovuq suvga urdirmadi.<sup>3</sup> Homiladorlik - ayollar uchun o‘rganish joylarida taqiqlangan yana bir mavzu. Homiladorlik ko‘pchilikning ongida kasallik va o‘lim bilan bog‘liq va uning homilaga ta’siri potensial og‘riqli deb hisoblanadi. Natijada, ko‘pchilik homilador atamasi uchun boshqa evfemistik so‘zlarni almashtiradi. Muloyim suhbatda, odatda, homiladorlik atamasidan qochish kerak. O‘zbek madaniyatida ham homilador ayolga katta e’tibor beriladi. U borganda, ko‘p odamlar hurmat ko‘rsatadilar va o‘z nutqlarida qo‘llash ijtimoiy normaga hurmat sifatida ko‘riladi.

Evfemizmlar ham nutqiy vaziyatlarda turlicha namoyon bo‘ladi, ya’ni shaklan bir xil bo‘lgan evfemizmlar komunikatorlar tomonidan har xil ma’noda qo‘llanadi:

<sup>1</sup> Tohir Malik, Zulm hikoyasi - [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). 45-bet

<sup>2</sup> Tohir Malik, Voy onaginam hikoya - [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) 6-bet

<sup>3</sup> Ko‘rsatilgan manba. 18-bet

... Ko‘chadan bo‘g‘iqqina “men” degan ovoz keldi.

Latifa u yondan bu yonboshgacha ag‘darildi. Uyquli ko‘zlarini arang ochdi...

- Chiqmang, - takrorladi Latifa, - ukangiz. Keragi yo‘q.

Nazir hayron bo‘lib qoldi.

- Zokirmi, qutilibdimi? Qayoqdan bilding? (3-bet) Ushbu kontekstda “qutildimi” deb Nazir o‘z ukasining qamoqdan chiqibdi, degan ma’noda qo‘llagan. Aynan bu so‘z boshqa bir nutqda tug‘moq o‘rnida (ko‘zi yorimoq, qutilib olmoq) <sup>1</sup> qo‘llanadi. Qamoqdan chiqmoq birikmasi o‘rniga “qutilmoq” evfemizmini qo‘llash muloyimroqdir. Aka o‘z ukasining oqlanganini bilib, nutqida so‘roq aktidan foydalangani ukasiga bo‘lgan mehr, quvonch ham xayronlik ifodalangan.

Demak, evfemizmlarning qo‘llanilishi va nutq ishtirokchilarining muomala madaniyati, komunikatorlarning salohiyatidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Nafaqat so‘zlashuvda, balki badiiy adabiyotda ham evfemizmlarning keng tarqalganiga, obrazlarning xushmuomalalik darajasini ko‘rsatishiga guvoh bo‘lamiz. Bu esa tilning ma’no-mazmun imkoniyatlarining ko‘pligini anglatadi. Endilikda evfemik birliklar asarlarida ifodalanibgina qolmay, shu tilda muloqot qiluvchilarning, qaysi jins vakili bo‘lishidan qat’i nazar, nutqida o‘z aksini topishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Evfemizmlar yuksak saviyali muloqot va xushmuomalalik madaniyatining mahsulidir. Demak, har bir so‘zlovchini tilning go‘zal va boy imkoniyatlarini ko‘rsatib berishda evfemizmlarning o‘rni katta ekanligini kuzatdik.

#### **Adabiyotlar:**

1. A. Hojiyev, Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. - Toshkent. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). 131-bet.

2. A. Omonturdiyev Sh. Abduraimova, O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. - Toshkent, 2016. 63-bet

3. G. Safarova, Evfemizmlarning nutqiy voqelanishida pragmatik omillarning ta’siri. “O‘zbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktikasi masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari . Toshkent – 2021. 55-bet

4. J. Omonturdiyev, A. Omonturdiyev, So‘z qo‘llash san’at. - [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). 22-bet

5. X. Qodirova o‘zbek tilida evfemizm va disfemizm, “Bookmany print” Toshkent – 2022. 5-bet

6. Tohir Malik, Zulm hikoyasi. - [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). 45-bet

7. Tohir Malik, Voy onaginam hikoya. - [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) 6-bet

---

<sup>1</sup> A. Omonturdiyev Sh. Abduraimova. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. Toshkent — 2016. 63-bet